# 2020- yil yanvar-dekabr oylari uchun Andijon viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida jami **4474,4** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **104,9 %** ni tashkil etdi.




## 2020- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo’yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo`yicha bo`linadi.




***Ma‘lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **297,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o`sish surati **137,3 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **6,65 %** ni tashkil etdi**.**



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




***Ma'lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **32,9** % i yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **102,4 %)** ga to'g'ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,33 % i** to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **1,51 %** punktga ka’maydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **102,0 %** ni tashkil etgan holda **2788,7** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to’g’ri kelgan qurilish ishlari ulushi o’tgan yilning mos davriga nisbatan **31,03** % ni tashkil etdi yoki **1388,2** mlrd. so’m miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,5** % ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

**ulushi % da, mlrd. so'm**




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **213,0** mlrd. so‘m yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **152,9 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4261,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati **260,0 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





## Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2020- yil yanvar-dekabr oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so’m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk * | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| **Viloyat bo`yicha:** | 4474,4 | 213,0 | 4,8 | 4261,4 | 95,2 |
| Andijon sh. | 1472,1 | 37,4 | 2,5 | 1434,7 | 97,5 |
| Xonobod sh. | 116,5 | - | - | 116,5 | 100,0 |
| tumanlar : | | | | | |
| Oltinko`l | 295,5 | 3,1 | 1,1 | 292,4 | 98,9 |
| Andijon | 595,2 | 23,9 | 4,0 | 571,3 | 96,0 |
| Baliqchi | 103,5 | 13,2 | 12,8 | 90,5 | 87,2 |
| Bo’ston | 152,7 | 3,8 | 2,5 | 148,9 | 97,5 |
| Buloqboshi | 91,1 | 13,2 | 14,5 | 77,9 | 85,5 |
| Jalaquduq | 199,2 | 13,2 | 6,6 | 186,0 | 93,4 |
| Izboskan | 130,3 | 13,2 | 10,1 | 117,1 | 89,9 |
| Ulug`nor | 90,7 | 13,2 | 14,5 | 77,5 | 85,5 |
| Qo`rg`ontepa | 160,5 | 13,2 | 10,3 | 147,3 | 91,8 |
| Asaka | 201,4 | 13,2 | 6,5 | 188,2 | 93,5 |
| Marxamat | 210,6 | 13,2 | 6,3 | 197,4 | 93,7 |
| Shaxrixon | 318,9 | 13,2 | 4,1 | 305,7 | 95,9 |
| Paxtaobod | 198,6 | 13,2 | 6,6 | 185,4 | 93,4 |
| Xo`jaobod | 137,6 | 13,2 | 9,6 | 124,6 | 90,4 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

## Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari,% da

### 2019- yil yanvar-dekabr

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 16,4 | 8,7 | 74,9 |

### 2020- yil yanvar-dekabr

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 11,9 | 12,2 | 75,9 |

***Ma'lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,0 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **5,0 %** punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **4,9 %** punktga ka‘mayib, **55,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga ka‘mayib, **39,8 %** ni tashkil etdi.





## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **12,4 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **4,5 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **80,8 %** (**11,1 %** punktga ka'maydi).

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,6 %** punktga ko'paydi, **6,8 %** ni tashkil etdi.





# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **4,3 %** punktga ka'maydi va **11,3 %** ni tashkil etdi. Qolgan **88,7 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **4,3 %** punktga ko'paydi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-dekabr oylarida

### Eng yuqori hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Andijon sh. 1472,1
2. Andijon 595,2
3. SHahrihon 318,9

### Kichik hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Baliqchi 103,5
2. Buloqboshi 91,1
3. Ulug'nor 90,7



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev**

***Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37***